

MOVAROUNNAHRDA SOLIQ TIZIMI: MIRZO ULUG`BEK HUKMRONLIGI
DAVRIDA

НАЛОГОВАЯ СИСТЕМА МАВЕРАННАХРА В ГОДЫ ПРАВЛЕНИЯ МИРЗО
УЛУГБЕКА

THE TAX SYSTEM OF MAWERANNAHR DURING THE REIGN OF MIRZO
ULUGBEK

Turdaliyeva Gulasalxon Adusalom qizi

Qo`sh tepa tumani 19-maktab Tarix fani o`qituvchisi, Farg`ona davlat universiteti mustaqil
tadqiqotchisi. gulasalturdaliyeva@gmail.com Tel: +998996004284

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzo Ulug`bek hukmronligi davrida Movarounnahrda amal qilgan soliq tizimi va uning asosiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda soliq turlarining shakllanishi, ularning yig`ilish tartibi hamda davlat moliyaviy boshqaruvdagi o`rni tahlil qilinadi. Shuningdek Temuriylar davrida olib borilgan iqtisodiy siyosat, soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta`siri manbalar asosida yoritiladi. Maqolada tarixiy yozma manbalar va zamonaviy tadqiqotlar tahliliga tayangan holda Mirzo Ulug`bek davrida soliq tizimining barqarorligini ta`minlashga qaratilgan chora-tadbirlari ochib beriladi.

**Kalit so`zlar:** Tamg`a, jizya, madan, vaqf yerlari, moliyaviy boshqaruv, Movarounnahr, yer munosabatlari, o`rta asrlar iqtisodiyoti.

Аннотация: В статье рассматривается налоговая система Мавераннахра в период правления Мирзо Улугбека. Анализируются основные виды налогов порядок их взимания и роль налоговых поступлений в системе государственного управления. Особое внимание уделяется экономической политике Тимуридов и влиянию налоговых отношений на социально-экономическое развитие региона. На основе письменных исторических источников и научных исследований раскрываются особенности налоговой системы и меры направленные на обеспечение финансовой стабильности государства в эпоху Мирзо Улугбека.

Ключевые слова: тамга, джизья, мадан, вакуфные земли, финансовое управления, мавераннахр, земельные отношения, средневековая экономика

Annotation: This article examines the tax system of Mawarannahr during the reign of Mirza Ulugbek. The study analyzes the main types of taxes, their methods of collection and their role in state financial administration. Special attention is given to the to the economic policy of the Timurid state and the



impact of taxation on the socio-economic development of the region. Based on historical written sources and modern scholarly research, the article highlights the characteristics of the tax system and the measures aimed at maintaining fiscal stability during Mirza Ulugbek's rule.

Keywords: *tamgha jizya, madan, wafq lands, financial administration, Mowarannahr, land relations, medieval economy*

KIRISH

Movarounnahr hududi oʻrta asrlarda Sharqning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan eng muhim mintaqalaridan biri hisoblangan. Ayniqsa, Temuriylar davrida bu hududda markazlashgan davlat boshqaruvi shakllanib, moliya va soliq tizimi davlat barqarorligining muhim omillaridan biriga aylangan. Mirzo Ulugʻbek hukmronligi davri (1409-1449) Movarounnahr tarixida nafaqat ilm-fan va madaniyat taraqqiyoti, balki davlat boshqaruvi va iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi bilan ajralib turadi.

Mirzo Ulugʻbek davlatni boshqarishda adolat tamoyillariga asoslangan moliyaviy siyosat yuritishga intilgan. Soliq tizimi dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatgan boʻlib, soliqlarning turi, miqdori va undirish tartibi aniq meʼyorlar asosida belgilangan. Bu davrda soliq yigʻish jarayonida aholi manfaatlarini hisobga olish, soliq yukini haddan tashqari oshirmaslik va xoʻjalik yuritish barqarorligini taʼminlash muhim vazifa sifatida qaralgan.

Mazkur maqolada Mirzo Ulugʻbek davrida Movarounnahrda amal qilgan soliq tizimining asosiy turlari, ularning iqtisodiy ahamiyati hamda davlat boshqaruvidagi oʻrni tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, soliq siyosatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga koʻrsatgan taʼsiri yoritilib, Temuriylar davridagi moliyaviy boshqaruvning oʻziga hos jihatlari ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Movarounnahrda soliq tizimining shakllanishi va rivoji masalasi tarixshunoslikda muhim oʻrin egallaydi. Ayniqsa Temuriylar davri jumladan, Mirzo Ulugʻbek hukmronligi yillarida (1409-1449) amalga oshirilgan moliyaviy va soliq islohotlari koʻplan tadqiqotchilar eʼtiborini tortgan.

Mazkur masalada dastlabki oʻrta asr mualliflari asarlarida uchraydi. Xususan Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Amir Temur va Temuriylar davrida soliq yigʻimi, yer egaligiva davlat daromadlari haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Garchi asar Mirzo Ulugʻbek davrini bevosita yoritmasada, undagi maʼlumotlar Ulugʻbek davri soliq tizimining ildizlarini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

Mirzo Ulugʻbek davridagi boshqaruv va moliyaviy siyosatga oid muhim maʼlumotlar Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlaʼ us-saʼdayn va majmaʼ ul-bahrayn” asarida uchraydi. Asar bevosita Shohruh mirzo va u hukmronlik qilgan davr haqidagi maʼlumotlarni



yoritgani uchun, unda Mirzo Ulugʻbek hukmronligiga oid bir nechta manbalar ham qayd qilib oʻtilgan.

Zamonaviy tarixshunoslikda Mirzo Ulugʻbek davridagi soliq tizimlari kengroq tahlil qilingan boʻlib, B Ahmedov, A, Asqarov kabi olimlarning asarlarida Temuriylar davri moliya tizimi, soliq turlari xiroj, jizya, zakot, tamgʻa, boj hamda boshqa yigʻimlarning iqtisodiy hayotga taʼsiri atroflicha yoritilgan. Ayniqsa B Ahmedov tomonidan yozilgan esseda bu Mirzo Ulugʻbek davridagi soliq siyosati haqida atroflichamaʼlumotlar berib berilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Mirzo Ulugʻbek davrida soliq tizimini bevosita otasi Shohruh Mirzo bilan bogʻliq hisoblanadi. Garchi 1409-yilda Movarounnahr hududlarini otasidan mustaqil boshqarishga huquq olgan boʻlsada Ulugʻbek yillik miqdordagi soliqlarni Xurosonga joʻnatib turganligi u hukmronlik qilayotgan hududlari Shohruh mirzo qoʻl ostida ekanligini koʻrsatib turgan. Temurshunos olim Boʻriboy Ahmedovning Mirzo Ulugʻbek haqida yozgan essesda shunday maʼlumot beradi. Bir kuni Ulugʻbek devon ishlari bilan band boʻlib oʻtirgan payta uning yoniga bir kishi kelib oʻzini savdogar ekanligini aytadi. Xurosondan kelayotganini, karvon Amu suvidan kechib oʻtayotgaida qimmatbaho toshini yoʻqotganini aytib shikoyat qiladi. Ulugʻbek uni tinchlantirib bir yil kutishini, topilmasa qiymatini toʻlab berishini aytib uyiga yuboradi. Bir muddat oʻtgach oʻtgan yilda soliq toʻlaganlarning roʻyhatini koʻrib turganida Ulugʻbek qorakoʻllik bir kishining 50 tangalik soliq oʻrniga 500 tangalik soliq toʻlaganini aniqlaydi va qorakoʻllik soliq toʻlovchini Samarqandga chaqirtirib buni sababini soʻrashganida, u odam hovliga bir qargʻa ogʻzidan bir tugunchani tushurib qoʻygani, uning ichidan esa ushbu tosh chiqqanligini, keyin toshni Buxorodagi bir zargarga sotganligini, bir qismini oʻziga ishlatgani va bir qismini esa soliqga bergani, oʻzi esa bir kambagʻal ekanligini bir boshdan aytib beradi. Ulugʻbek buxorolik oʻsha zargarni toshni juda ham arzon bahoda harid qilib olganini aniqlaydi, toshni oʻz egasiga qaytaradi.

Shohruh mirzo vafot etganidan keyin Mirzo Ulugʻbek Movarounnahr hududlarini mustaqil boshqarishga intiladi. Aholi manfaatlarini oʻylagan holatda adolatli soliq siyosatini yurgizishga harakat qilgan. Amir Temur chingiziylar davrida mavjud boʻlgan tamgʻa va jizya soliqlarini olishni taqiqlaydi. Tamgʻa soligʻini bekor qilinishi hunarmandchilik va savdo-sotiqning gurrakib rivojlanishiga turtki boʻladi. sohibqiron vafotidan keyin oʻzaro boshlangan urushlarda Movarounnahr va Xuroson xalqining ijtimoiy ahvoli ayanchli darajaga tushib qoladi. Lekin Ulugʻbek mirzo davriga kelganida yer soliqlarini miqdori kamaytirilib, hunarmandlar va savdogarlardan olinadigan soliqlar miqdorini oshirilishi, uning obroʻsini birmuncha tushurib yuborilishiga sabab boʻladi. Movarounnahr hududlarida tamgʻa soligʻini olish shariat qoidalariga qarshi jinoyat ekanligi, vaqti-vaqti bilan hukmdorlar tomonidan bu soliqni olish bekor qilib turilganligi





manbalarda qayd qilinadi. Tamg'a solig'ini davlat foydasiga o'tkazadi. Bu soliqdan keladigan pulni fan va madaniyat taraqqiyotiga sarflaydi.. Ulug'bekni bu qilgan ishi shayhlar va boshqa din arboblarning qattiq noroziligiga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida Mirzo Ulug'bekka qarshi kuchlarning bosh ko'tarishiga olib keladi. Bu vaziyatdan foydalanib qolgan o'g'li Abdulatifni otasiga qarshi kuchlarni o'z atrofida yig'ishga urunadi va bu jarayon nhoyasida 1449-yil 25-oktabr kuni Mirzo Ulug'bek o'g'li tomonidan yollangan qotil tomonidan qatl qilinadi.

XULOSA

Mirzo Ulug'bek davrida Movarounnahrda soliq tizimi an'anaviy temuriylar davridagi boshqaruv asosida shakllanganligini, soliq yukining nisbatan muvozanatli bo'lganligini va davlat barqarorligini ta'minlashga xizmat qilganligini ko'rsatadi. Ulug'bek davrida yer munosabatlari va soliq yig'imi davlat nazorati ostida olib borilganligini, vaqf yerlari va ulardan keladigan foydani masjid va madrasalarga sarflanishi, u yerdagi talabalarni yaxshi o'qishi uchun davlat xazinasidan ko'p miqdorda mablag' ajratilganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hattoki tamg'a solig'idan keladigan foyda ham Mirzo Ulug'bek fan va madaniyat taraqqiyotiga sarflash haqida buyruq berganligi, hukmdorni ilm-fanga davlat hududida katta e'tibor bilan qaraganligini ko'rsatadi.

Soliq siyosatining nisbatan barqaror bo'lishi ilm-fan, bunyodkorlik ishlarining qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Mirzo Ulug'bek davridagi soliq tizimi Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin egallab, keying davrlar moliyabiy boshqaruvi uchun muayyan tajriba vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Bo'riboy Ahmedov. Ulug'bek (esse). – T.; "Yosh gvardiya", 1989, B-128-129.
2. Shamsutdinov R. Vatan tarixi. (1-qism). – T.; "Sharq", 2010. B-465
3. Toshmatov Sh va b. Soliq nazariyasi va tarixi. (O'quv qo'llanma);, T.; 2021. B- 31.
4. Madripov A, Fuzailova G. Manbashunslik. – T.; 2008
5. G'iyosiddin ibn Humomiddin Xondamir. Habib us-siyar. /fors rilidan tarjima va muqaddima muallifi: Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov/ (izohlar muallifi: Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov)T.; "O'zbekiston", 2013.
6. Mirhond. Ravzat us-safo. T.; "Fan", 1999.
7. Abdurazzoq Samarqandiy. Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn. Fors tilidan tarjimon so'z boshi va izohlar muallifi A. O'rinboyev 2-jild, 1-2-qism (1429-1470-yillar voqaelari). – T.; "O'zbekiston", 2008

